



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Tursuntosh Tolipova**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchisi

## O'QISH DARSLIKLARIDAGI MATNLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH VA ULAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi matnlar uchun PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlari asosida topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Matn, qism, poygak, asoslang, topshiriq, mazmun, maqsad, vazifa.

PIRLS tadqiqoti uchun adabiy kitobxonlik malakasini egallash bo'yicha uslubiy tavsiyalar berish maqsadida 4-sinf o'qish kitobidan Yusuf Xos Hojibning "Odamdan nima qoladi" matni uchun topshiriqlar tayyorlash va bu topshiriqlarning maqsad va vazifalari, ular ustida ishlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, topshiriqlarning namunaviy javoblari ham keltirilmoqda.

### Topshiriqlar

1-topshiriq: "Donoga quyidan, poygakdan o'rin tegsa, o'sha poygak to'rdan ham baland sanaladi" jumlasini izohlang.

*Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda matnning mazmuni bilan kengroq tanishib*



*borishlariga, lug‘at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.*

2-topshiriq: Matn necha qismdan iborat? Har bir qismning qisqacha mazmunini yozing.

*Maqsad: Matnni qismga bo‘lish orqali o‘quvchilar har bir gapni to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rganishadi, bayon yozish kompetensiyasi shakllanib boradi.*

3-topshiriq: Ezgulik so‘ziga ta‘rif bering.

*Maqsad: Ezgulikka ta‘rif berish orqali insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o‘rganishadi.*

4-topshiriq: *Yomonlik go‘yo o‘t, yondirar, yoqar,*

*O‘tishga kechig yo‘q: u soy tez oqar.*

Ushbu misralarni siz qanday tushundingiz? Fikringizni bayon eting: \_\_\_\_\_

*Maqsad: O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, fikrini yozma bayon qilish malakalarini shakllantirish.*

5-topshiriq. Matnga yana qanday sarlovha qo‘yish mumkin? Asoslang.

1-variant: “Yaxshidan nom qolar”

*Asos: Chunki, bu matnda yaxshi, ezgu ishlar qilgan odamdan yaxshi nom qolishi aytilgan.*

2-variant: “Hayotni qadrla”

*Asos: Chunki, bu matndan umr xuddi yashindek tez o‘tib ketishini tushunib olish mumkin.*

3-variant: “Saxiy o‘lsa ham, nomi tirik qolar”

*Asos: Saxiy odamlar o‘lsa ham ular qilgan ezgu ishlari abadiy qoladi.*

*Maqsad: Ushbu topshiriq o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi. O‘quvchi o‘qiganlari yuzasidan, chuqur mulohaza yuritadi.*

6-topshiriq: Test.

1. Lekin podshoning ham, oddiy odamning ham vafotidan keyin qoladigan narsasi — \_\_\_\_\_ bor... Tushirib qoldirilgan so‘zni toping.

A) boyligi; B) nomi; D) bola-chasi;

2. Tajribalarda juda ko‘p marta tasdiqlangan shunday hikmat bor: ...

A) ...yomonlarning omadi hech qachon kelmaydi;

B) ... yaxshilarning omadi hech qachon kelmaydi

D) ... saxiylarning omadi hech qachon kelmaydi

3. Bilimsiz kishi \_\_\_\_\_ bilan teng ?

A) o‘g‘ri — kazzob B) dono — bilimli D) yilqi — hayvon

B) 7-topshiriq: Yusuf Xos Hojibning quyidagi satrlarini mazmunini izohlang.

*Yaxshi nom oladi, ko‘r, ezgu kishi,*

*Yomonlar nasibi — el-yurt qarg‘ishi.....*



8-topshiriq. Bilimlilikning afzalligi haqida qanday maqol bilasiz?

*Maqsad: Topshiriq xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqishlariga xizmat qiladi.*

9-topshiriq: Odamlardagi 5 ta ezgu xislatni yozing.

*Maqsad: Topshiriq o‘quvchilarga har bir insonning ota-ona, oila, mahalla, Vatan oldidagi burchini doimo his qilishi lozimligini o‘rgatadi.*

11-topshiriq: Dono kishilarga xos bo‘lgan 5 ta eng muhim xususiyatlarni yozing.

12-topshiriq: Yaxshilik qilish deganda siz nimani tushunasiz? Bular haqida nimalar bilasiz?

*Maqsad: O‘quvchilar tariximizni, milliy qadriyatlarimizni o‘rganishda, hurmat qilishida bu kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.*

Xulosa. Ta’lim sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan o‘zbek ta’limini modernizatsiya qilish samaradorligi ko‘p jihatdan har xil turdagi ta’lim natijalari bo‘yicha tadqiqotlar doirasida olingan obyektiv ma’lumotlardan foydalanish darajasiga bog‘liq. Ushbu barcha tadqiqotlar ta’limning holati va uning o‘zgarishi tendentsiyalari to‘g‘risida ma’lumot beradi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni o‘zaro bog‘lash, ta’lim sifatini dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslash va shu asosda hal qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim muammolarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishini o‘zgartirish va kelgusi yillarda ta’lim holatini prognoz qilish uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi.